NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# NAVOIY VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2021- YIL YANVAR-IYUN*

Sanoat statistikasi bo‘limi
Tel.: 79-223-33-29

# Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-iyun)*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 35 109,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 106,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (84,1 %) ni tashkil etdi.







***B**–Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 12,8 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 5,7 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 0,4 % ga o'sishiga xizmat qildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning- 3,0 % ga pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*

*(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 751,0 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,7 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, *% da*







## Ishlab chiqaradigan sanoat

*(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)*




2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 29 516,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,1 % ini tashkil etdi.

## **Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2020- yilning yanvar-iyun oylarida - 0,4 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 7,2 % (5,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 85,8 % (86,9 %) va quyi texnologiyalisi - 6,8 % (6,9 %) ni tashkil etdi.

| Ulushi *% da* | Yuqori texnologiyali | O‘rta-yuqori texnologiyali | O‘rta-quyi texnologiyali | quyi texnologiyali |
|---|---|---|---|---|
| 2020- y. | 0,4 | 5,8 | 86,9 | 6,9 |
| 2021- y. | 0,2 | 7,2 | 85,8 | 6,8 |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,9 % (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 96,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 76,7 % (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 104,1 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 % (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 114,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,0 % (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 108,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,2 % (2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 134,3 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 6,6 ming m³ azot (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 149,0 % ga o‘sgan), 43,0 ming tonna natriy gidroksidi (kaustik soda) (136,2 %), 296,7 ming tonna suvsiz ammiak (145,9 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**Natriy gidroksidi (kaustik soda)**




**Suvsiz ammiak**




**Sement**




**Azot**




**Tvorog va tvorogdan mahsulotlar**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | 2020- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan o’sish, % da |
|---|---|---|---|
| **Portlandsement,** ming tonna. | 1 750,0 | 1 867,4 | 106,7 |
| **Azot,** ming m³ | 4,4 | 6,6 | 149,0 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni**, tonna | 34 474 | 32 195 | 93,4 |
| **Natriy gidroksidi (kaustik soda),** ming tonna | 31,6 | 43,0 | 136,2 |
| **Kislorod**, ming m³. | 73,1 | 68,3 | 93,4 |
| **Suvsiz ammiak, ming tonna** | 203,4 | 296,7 | 145,9 |
| **Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni og‘irligi 600 g (buxanka),** tonna. | 234,0 | 230,7 | 98,6 |
| **Tvorog va tvorogdan mahsulotlar,** tonna | 43,9 | 44,7 | 101,9 |

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan azot 149,0 % ga hamda kaustik soda mahsulotining 136,2 % ga o‘sishi qayd etildi.

Shuningdek, birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni og‘irligi 600 g (buxanka) 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan - 98,6 % ni tashkil qildi.

## Metallurgiya sanoati

*(2021- yil yanvar-iyun)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati ulushi 77,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 15,1 % ga o‘sgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 76,7 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa 4,1 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 22 641,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-iyun)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 113,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 96,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 163,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyun)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakun-lariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 9,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 866,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-iyun)*




2020- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 106,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,1 % ni, fizik hajm indeksi 146,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 789,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

# Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 798,6 mlrd. so‘mni jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,1 % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,0 % ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,** *% da*







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 5 883,6 | 5 393,3 | - 490,3 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 1 837,7 | 2 327,6 | 489,9 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)*







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 13 200,0 | 27 494,3 | 14 294,3 |
| **Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 9,3 | 81,4 | 72,1 |
| **Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig‘ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar,** *tonna* | 15 045,3 | 25 482,0 | 10 436,7 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 2,1 (bar.)ga va xavfli

(zaharli) sanoat chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar - 8,8 (bar.)ga hamda boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig‘ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar - 69,4 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 952,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 107,4 % ni tashkil etdi, uning jami sanoatdagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,2 % (2020- yil yanvar-iyun oylarida 0,1 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib 30,0 % ni, Karmana tumani 19,4 % ni, Qiziltepa tumani 12,4 % ni, Xatirchi tumani 11,6 % ni hamda Navbahor tumani 7,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (107,4 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Zarafshon shahrida (123,3 %) hamda Karmana tumanida (114,2 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)*

**Navoiy viloyati.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1 952,2 | 100,0 | 107,4 |

**Navoiy sh.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 586,5 | 30,0 | 104,0 |

**Navbahor t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 143,6 | 7,3 | 105,3 |

**Zarafshon sh.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 139,7 | 7,2 | 123,3 |

**Nurota t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 120,3 | 6,2 | 105,3 |

**Karmana t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 377,9 | 19,4 | 114,2 |

**Tomdi t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 16,9 | 0,9 | 100,8 |

**Konimex t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 49,2 | 2,5 | 103,2 |

**Uchquduq t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 48,4 | 2,5 | 103,5 |

**Qiziltepa t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 242,3 | 12,4 | 108,9 |

**Xatirchi t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 227,4 | 11,6 | 100,7 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib 37,5 % ni, Karmana tumani 22,5 % ni, Xatirchi tumani 7,9 % ni, Qiziltepa tumani 7,1 % ni hamda Navbahor tumani 6,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (105,4 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Zarafshon shahrida (117,7 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)*

**Navoiy viloyati.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1 137,5 | 100,0 | 105,4 |

**Navoiy sh.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 427,0 | 37,5 | 105,8 |

**Navbahor t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 77,6 | 6,8 | 107,8 |

**Zarafshon sh.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 64,4 | 5,7 | 117,7 |

**Nurota t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 90,5 | 8,0 | 106,0 |

**Karmana t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 255,3 | 22,5 | 105,5 |

**Tomdi t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 7,8 | 0,7 | 100,9 |

**Konimex t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 25,0 | 2,2 | 100,7 |

**Uchquduq t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 18,6 | 1,6 | 106,2 |

**Qiziltepa t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 81,2 | 7,1 | 99,8 |

**Xatirchi t.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 90,1 | 7,9 | 100,5 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qiziltepa tumaniga to‘g‘ri kelib 19,8 % ni, Navoiy shahriga 19,6 % ni, Xatirchi tumani 16,8 % ni, Karmana tumani 15,0 % ni hamda Zarafshon shahrida 9,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Karmana tumanida (138,1 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy viloyati. | 814,7 | 100,0 | 110,1 |
| Navoiy sh. | 159,5 | 19,6 | 99,3 |
| Navbahor t. | 66,0 | 8,1 | 102,5 |
| Zarafshon sh. | 75,3 | 9,2 | 128,5 |
| Nurota t. | 29,8 | 3,7 | 103,1 |
| Karmana t. | 122,6 | 15,0 | 138,1 |
| Tomdi t. | 9,1 | 1,1 | 100,6 |
| Konimex t. | 24,2 | 3,0 | 106,0 |
| Uchquduq t. | 29,8 | 3,7 | 101,9 |
| Qiziltepa t. | 161,1 | 19,8 | 114,1 |
| Xatirchi t. | 137,3 | 16,8 | 100,8 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 814,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 2,3 % ni tashkil etdi.

# Navoiy viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*(2021- yilning yanvar-iyun oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy viloyati. | 35 109,6 | 100,0 | 106,1 |
| Navoiy sh. | 29 963,3 | 85,3 | 105,7 |
| Navbahor t. | 310,2 | 0,9 | 117,7 |
| Zarafshon sh. | 164,3 | 0,4 | 107,5 |
| Nurota t. | 143,1 | 0,4 | 107,2 |
| Karmana t. | 3 468,4 | 9,9 | 106,2 |
| Tomdi t. | 20,1 | 0,1 | 105,5 |
| Konimex t. | 59,0 | 0,2 | 104,0 |
| Uchquduq t. | 80,2 | 0,2 | 115,0 |
| Qiziltepa t. | 305,7 | 0,9 | 109,6 |
| Xatirchi t. | 595,3 | 1,7 | 111,9 |

## Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati, *% da*

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining viloyat ko‘rsatkichidan yuqori, Navbahor tumaniga (2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 117,7 %) hamda Uchquduq (2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 115,0 %) va Xatirchi tumanlariga (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 111,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Zarafshon shahrida ( 2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 123,3 %), Karmana tumanida (114,2 %) Qiziltepa tumanida ( 108,9 %) hamda Nurota tumanida (105,3 %) sezilarli darajada oshdi.

**Navoiy viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da**

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Navoiy shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 85,3 %) hamda Karmana (9,9 %), Xatirchi (1,7 %), Navbahor ( 0,9 %), Qiziltepa ( 0,9 %), tumanlari  hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Tomdi ( 0,1 %), Konimex (0,2 %),  Uchquduq (0,2 %), Nurota (0,4 %) tumanlari hamda Zarafshon (0,4 %) shahri hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (202 856,3 ming so'm),Karmana (26 865,7 ming so'm), Xatirchi (2 936,9 ming so'm) hamda Navbahor (2 694,2 ming so'm) va Uchquduq (2 122,4 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi Navoiy shahrida - 3 970,8 ming so'mni, Karmana tumani - 2 927,5 ming so'mni, Zarafshon shahrida - 1 642,0 ming so'mni, Qiziltepa tumani - 1 568,1 ming so'mni, Konimex tumani - 1 355,6 ming so'mni va Uchquduq tumani - 1 279,0 ming so'mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yilning yanvar-iyun oylarida, ming so'm)*

| | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste'mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **34 493,0** | **1 917,9** |

| | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste'mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| **Navoiy sh.** | **202 856,3** | **3 970,8** |
| **Navbahor t.** | **2 694,2** | **1 247,0** |
| **Zarafshon sh.** | **1 931,2** | **1 642,0** |
| **Nurota t.** | **1 517,1** | **1 275,8** |
| **Karmana t.** | **26 865,7** | **2 927,5** |
| **Tomdi t.** | **1 319,3** | **1 110,7** |
| **Konimex t.** | **1 625,8** | **1 355,6** |
| **Uchquduq t.** | **2 122,4** | **1 279,0** |
| **Qiziltepa t.** | **1 978,5** | **1 568,1** |
| **Xatirchi t.** | **2 936,9** | **1 121,8** |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*(2021- yilning yanvar-iyun oylarida, % da)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 157,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,1 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Konimex (100,0 %), Zarafshon shahrida (99,0 %), Nurota (96,2 %), Qiziltepa (81,0 %) tumanlarida tashkil etdi.




Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Navoiy shahrida (1,7 %), Karmana (15,9 %), Xatirchi (39,7 %), Navbahor (48,1 %), tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**<u>Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni,</u>** *<u>birlikda</u>*
*(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra)*

Bugungi kunda viloyatimizda 3 376 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda,shundan 738 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,9 %) Navoiy shahriga, 583 tasi (17,3 %) Karmana tumaniga, 422 tasi (12,5 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**<u>Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni,</u>** *<u>birlikda</u>*
*(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra)*




2021- yil yanvar-iyun oylarida viloyatimizda 540 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 80 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 14,8 %) Navoiy shahrida, 76 tasi (14,1 %) Karmana tumanida, 72 tasi (13,3 %) Xatirchi tumanida, 65 tasi (12,0 %) Uchquduq tumanida, 57 tasi (10,6 %) Nurota tumanida, 51 tasi (9,4 %) Zarafshon shahrida, 49 tasi (9,1 %) Qiziltepa tumanid, 46 tasi (8,5 %) Navbahor tumanida, 28 tasi (5,2 %) Tomdi hamda 16 tasi (3,0 %) Konimex tumanida tashkil etildi.

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori oʻsish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham oʻz ta’sirini koʻrsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 196 ta loyiha boʻyicha 849,2 mlrd. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 10,0 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 111 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi oʻtgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish oʻrinlari soni 111,0 % ga koʼpaygan. Shu bilan birga, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining kupaiyganligi kuzatildi.

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy koʻrsatkichlari




**Loyihalar soni,** *birlikda*




**Korxonalar soni,** *birlikda*




**Ishlab chiqarish hajmi,** *mlrd. soʻm*




**Yaratilgan yangi ish oʻrinlari,** *birlikda*




**Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi,** *mln. AQSh dollari*

**2020- yil yanvar-iyun** **2021- yil yanvar-iyun**